

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
ISSN 2992-9229



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal

2024 №2
(4)

Samarqand-2024

ISSN 2992-9229




TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2024



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Juliboy ELTAZAROV

f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Roxila RUZMANOVA

f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti rektori (O‘zbekiston);

Hakim XUSHVAQTOV – f.m.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

Akmal AHATOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha
prorektori (O‘zbekiston);

Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Suyun KARIMOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Azamat PARDAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Musa YULDASHEV – f.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Hamidulla DADABOYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Hotam UMUROV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Mardon BOLTAYEV – dotsent (O‘zbekiston);

Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya);

Abduselam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya);

Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya);

Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya);

Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH);

Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon);

Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya);

Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Shahnoza XUSHMURODOVA – Phd, dotsent
(O‘zbekiston);

Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent
(O‘zbekiston);

Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston);

Mas‘ul muharrir: **PhD Zokir BAYNAZAROV**
(O‘zbekiston);

Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV**
(O‘zbekiston).



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Заместитель главного редактора:

Жулибой ЭЛТАЗАРОВ

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Рохила РУЗМАНОВА

к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор,
ректор Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф.м.н., профессор,
проректор по научной работе и инновациям
Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор,
проректор по международному
сотрудничеству Самаркандского
государственного университета имени
Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муродкасым АБДИЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА – к.и.н., доцент
(Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Хамидулла ДАДАБОЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Хотам УМУРОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мардон БОЛТАЕВ – доцент (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуселам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор
(Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор
(США);

Хайрунниса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор
(Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Феруза МАНУКЯН – Phd (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD Зокир
БАЙНАЗАРОВ (Узбекистан)**

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ
(Узбекистан)**



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMİY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)
Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)
Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Khamidulla DADABOEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Khotam UMUROV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Mardon BOLTAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);

Prof. Dr. Abdusalam ARVAS (Turkey);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);

Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);

Prof. Dr. Temur KOJAĞLU (USA);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Turkey);

Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);

Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);

Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dinara İSLAMOVA (Uzbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: **Rahmatulla SHOKIROV** (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hamidulla DADABOYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hotam UMUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Foziljon ŞUKUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Doç. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKİROV** (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIGA OID TADQIQOTLAR

| | |
|---|-----|
| Qosimjon SODIQOV | |
| «DEVONU LUG‘ATI-T-TURK» MATNIDAGI HARAKAT BELGILARI VA TURKIY SO‘ZLARNING O‘QILISHI MASALASI..... | 9 |
| Hamidulla DADABOYEV | |
| “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA QORAXONIYLAR DAVRI SAVDO-MOLIYA ISTILOHLARI TIZIMINING AKS ETISHI..... | 19 |
| Shuhrat SIROJIDDINOV, Zulxumor XOLMANOVA | |
| “DEVONU LUG‘OTIT TURK”NING ADABIY-MA‘RIFIY QIYMATI..... | 27 |
| Jo‘ra XUDOYBERDIYEV | |
| “DEVONU LUG‘OTIT TURK”NING O‘ZBEK TARJIMONLARI VA ULARNING TARJIMALARI NASHRLARI HAQIDA..... | 35 |
| Baxtiyor ABDUSHUKUROV | |
| “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI O‘G‘UZCHA SO‘ZLAR..... | 49 |
| Vazira ALIMBEKOVA | |
| JANUBI-SHARQIY ANDIJON LINGVOAREALI LEKSIKASINING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIGA MUNOSABATI..... | 58 |
| Alima PIRNIYAZOVA | |
| MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘AT-IT-TURK” ASARI VA QORAQALPOQ TILI | 71 |
| Umurzoq JUMANAZAROV | |
| FITRAT “DEVONU LUG‘ATIT TURK” TADQIQOTCHISI..... | 78 |
| Shuxrat ABDULLAYEV | |
| “DEVONU LUG‘ATI-T-TURK”NING O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILI LEKSIKASIDA TUTGAN O‘RNI | 86 |
| Ahrorbek AZIZOV | |
| “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA XALQ O‘YINLARI TALQINI. | 93 |
| Sarvar QO‘LDOSHEV | |
| “DEVONU LUG‘OTIT TURK” DA DAVLATCHILIK BELGILARI | 103 |
| Ozoda SHARIPOVA | |
| “DEVONU LUG‘OT-AT TURK” ASARIDA KELTIRILGAN VATAN VA VATANPARVARLIK MAVZUSIDAGI PAREMALARNING SEMANTIK TADQIQI..... | 111 |

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

| | |
|--|-----|
| Sirojiddin XO‘JAQULOV | |
| TOJIK MA‘RIFATPARVARLIK VA JADID ADABIYOTIDA TURK TANZIMAT DAVRI ADABIYOTINING TA‘SIRI | 117 |
| Osman EMIN | |
| BALKAN TÜRK EDEBİYATI’NDA TÜRK DÜNYASI | 128 |
| Muso YULDASHEV | |
| LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN YANGI O‘ZBEK ALIFBOSI VA TURK-RUN YOZUVI TARIXIGA BIR NAZAR | 139 |
| Shohista JUMANOVA | |
| CHO‘LPON POETIKASI (UNING NASRIY ASARI : “KECHA VA KUNDUZ” ASOSIDA) | 145 |

TURKIY AXALQLARNING IJTIMOYIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

| | |
|---|-----|
| Мирвари ИСМАЙЛОВА | |
| КУЛИНАРНЫЙ КУЛЬТ АЗЕРБАЙДЖАНСКОГО НАРОДА В КОНТЕКСТЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ МАТЕРИАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ | 152 |
| Oybek BARZIYEV | |
| HIJRON MAVZUSI BILAN BOG‘LIQ AN‘ANAVIY POETIK TURKUMLAR (<i>Milliy uyg‘onish davri o‘zbek, qozoq, arman she‘riyati misolida</i>)..... | 162 |
| KITOB TANITUVI / KITAP TANYŞDYRYŞ / BOOK REVIEW | 168 |



AZIZ MUSHTARIY!

Qadim o‘tmishga ega bo‘lgan har bir xalqning madaniyat va sivilizatsiya hamjamiyatida o‘z izini qoldirgan asarlar mavjud. Shu jihatdan turkiy sivilizatsiyaning madaniy kodlarini ochib beruvchi va har o‘qilganida yangidan yangi ma‘nolar olamini ochuvchi turkologiyaning durdona asarlaridan biri “Devonu Lug‘otit Turk”dir. Ma‘lumki, YUNESKO Bosh Assambleyasining 42-sessiyasida qabul qilingan qaror bilan 2024-yil Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu Lug‘otit Turk” asari yozilganining 950 yilligi sifatida nishonlash belgilandi. Shu nuqtai nazardan, Ilmiy kengashimiz qalam va minnatdorchilik qarzi sifatida jurnalimizning 4-sonini Turk dunyosining bu noyob hazinasini yana bir bor kashf etish va uning muallifini hurmat bilan yodga olish maqsadida uni maxsus son sifatida nashr etishga qaror qildi.

Bu sonda “Devonu Lug‘otit Turk”da xalq o‘yinlari, Janubi-Sharqiy Andijon leksikologiyasining “Devonu Lug‘otit Turk” bilan aloqasi, Qoraxoniylar davri savdo-iqtisodiy leksikasining devonda aks ettirilishi, devonning o‘zbekcha tarjimalari va tarjimonlar, devon matnidagi harakat belgilari va turkiy so‘zlarni o‘qish masalalari, devondagi davlatchilik tamoyillari, asarning o‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikologiyasidagi o‘rni, vatan, vatanparvarlik haqidagi paremalarning semantik tahlili, kitobning adabiy-pedagogik ahamiyati, o‘g‘uzcha so‘zlar, tojik va jadid adabiyotida turk tanzimat davri adabiyotining ta‘siri mavzusiga oid maqolalar o‘rin olgan.

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

Each nation with a rich history has works that have profoundly influenced its cultural and civilizational landscape. Among such treasures in Turkology is the masterpiece Devonu Lugatit Turk, which unveils the cultural codes of Turkish civilization and reveals new layers of meaning with every read. In recognition of its significance, the 42nd UNESCO General Assembly designated 2024 as the 950th anniversary of Mahmud Kashgari’s Devonu Lugatit Turk. In celebration, our Scientific

Council has decided to dedicate the 4th issue of our magazine to honoring this unparalleled work and its esteemed author.

*This issue will explore various topics related to *Devonu Lugatit Turk*, including traditional folk games, the relationship between Southeast Andijan lexicology and the *divan*, reflections of the trade and economic lexicon of the Karakhanid period, Uzbek translations and their translators, interpretations of Turkic words in the *divan*, principles of statehood, and semantic analysis of poems focused on homeland and patriotism. Also featured are articles on the book's literary-pedagogical value, the presence of *Ugz* words, and the influence of Turkish *Tanzimat*-era literature on Tajik and contemporary literature.*

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

*Kadim geçmişi olan her milletin kültür ve medeniyet camiasına damgasını vurmuş eserleri vardır. O bakımdan Türk medeniyetinin kültürel kodlarını ortaya koyan ve muhtevasıyla her okunuşta yeni açılımlar sağlayan Türkolojinin başyapıtlarından biri de asırlar boyu elden ele dilden dile dolaştırılan *Kitâbu Dîvânu Lugâti't-Türk* adlı eserdir. Bilindiği üzere UNESCO Genel Kurulu'nun 42. oturumunda alınan kararla 2024 yılı, Kâşgarlı Mahmut'un *Dîvânu Lugâti't-Türk* adlı eserinin yazılışının 950. yıl dönümü olarak kutlanmaktadır. Bu kapsamda Bilim Kurulumuz, bir kalem ve gönül borcu olarak dergimizin 4. sayısını; Türk dünyasının bu eşsiz hazinesini bir kez daha keşfetmek ve müellifini saygıyla hatırlamak adına özel sayı olarak yayımlamaya karar vermiştir.*

*Bu sayıda “*Dîvânu Lugâti't-Türk*'te halk oyunları, Güneydoğu Andican leksikolojisinin *Dîvânu Lugâti't-Türk* ile ilişkisi, Karahanlılar Dönemi ticari-iktisadi istilahlara dîvâna yansımaları, dîvânın Özbekçe tercüme ve tercümanlar, dîvân metnindeki hareket fiilleri, işaretler ve Türkçe sözlerin okunma sorunları, dîvânda devletçilik prensipleri, eserin Özbek ve Karakalpak dilleri leksikolojisindeki yeri, dîvânda geçen vatan ve vatanperverlik konularındaki paremlerin (atasözlerinin) semantik tahlili, kitabın edebî ve pedagojik kıymeti, Oğuzca sözler, Tacik ve Cedit Edebiyatı'na *Tanzimat* dönemi Türk Edebiyatı'nın etkisi, Türk Bitig Taşları'nın Semerkant vilayeti Karluk şiveleriyle münasebeti, Çolpan'ın poetikası, hicran temasıyla ilgili geleneksel poetik birlikler” gibi konu başlıklarına yer verilmiştir.*

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

У каждого народа с древней историей есть произведения, оставившие след в общности культуры и цивилизации. В этом отношении раскрываются культурные коды турецкой цивилизации, шедевры тюркологии, открывающие мир новых смыслов каждый раз, когда его читают, одним из таких произведений можно назвать- «Диван лугат-ат-турк». Как известно на 42 сессии Генеральной Ассамблеи ЮНЕСКО принято решение о праздновании 950-летия сборника тюркских наречий Махмуда Кошгари «Диван лугат-ат-турк» в 2024 году.

С целью почтить память великого ученого наш научный совет решил посвятить 4 -й номер журнала этому уникальному сокровищу турецкого мира и опубликовать его в виде специального выпуска. Статьи этого сборника посвящены народным играм, представленным в «Диван лугат-ат-турк»; связь Южно-Шарайской Андижанской лексикологии с «Диван лугат-ат-турк», отражению в торгово-экономической лексики эпохи Караханидов в словаре; узбекским переводам и переводчикам словаря, принципам государственности, месту узбекской, каракалпакской лексики в произведении; семантическому анализу паремий о родине и патриотизме, значению литературно-педагогической составляющей книги; исследованию огузских слов в таджикской и джадидской литературе; тюркской литературе периода танзимата.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARI HAQIDA!

Eng qadimgi turkiy til tadqiqotchilaridan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariy, o‘zining yuksak lingvistik bilimlari bilan turkologiyaga beqiyos hissa qo‘shgan. U Turk dunyosining til, adabiyot va umuman madaniyat jihatdan Markaziy Osiyodagi eng yorqin davri hisoblangan Qoraxoniylar davrida yashagan. Madrasayi Hamidiyye va Madrasayi Sajiyyeda tahsil olgan olim, turk dunyosiga ikkita noyob xazinani taqdim etgan bo‘lib, bular “Devonu lug‘otit Turk” va “Javoqir un-Nahvi fi Lug‘otit Turk” asarlaridir. “Devonu lug‘otit Turk”ning asl qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Dunyodagi yagona nusxasi Muhammad b. Abu Bakr ibni Abulfath Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan. Bu nusxani Ali al-Emiriy qo‘lga kiritgan. Koshg‘ariyning devonda tilga olingan, ammo bugungi kungacha yetib kelmagan “Javoqirun-Nahvi fi Lug‘otit Turk” asari esa yo‘qolgan. Xuddi bir paytlar turklar orasida tarqalgan “Buyuk Xon Ato Bitig” va “O‘g‘uznoma” asarlari kabi bu kitob ham turkologiyaning yo‘qolgan asarlaridan bo‘lib, bugungi Ali Amiri Afandilarni, haqiqiy kitob do‘stlarini kutmoqda...

“Devonu lug‘otit Turk” asari Qoraxoniylar davri turk olimi va yozuvchisi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1072-1074-yillar orasida yozilgan. O‘z davrining eng mashhur olimlaridan hisoblangan Mahmud Koshg‘ariy bu asarni yozgan davrida arab tilining turk tilidan ko‘ra mavqei yuqori til ekanligi iddaosiga qaramay, turk tilining boy til ekanligini isbotlash maqsadida “Lug‘at” kitobi uslubida yaratgan. Bu yuksak til salohiyatining ikkinchi misolini buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy tomonidan turk tilining boshqa tillardan kam emasligini dalillash maqsadida yozilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari misolida ko‘rish mumkin. Xullas, Abdulla Oripov e‘tirof etganidek, Temurning qilichi yetmagan joyga qalami bilan yetgan, jang maydonida emas, balki ilm-fan va tafakkur yo‘lida kurash olib borgan ikki buyuk alloma sifatida butun turk dunyosining diqqat markazidadir.

Koshg‘ariy yillar davomida turk mamlakatlarini kezib, o‘zi ilmiy sohalarda tadqiqot olib borgan va so‘zdan tortib etimologiyasigacha ko‘rgan deyarli barcha madaniy elementlarini yozib olgan. Koshg‘ariy o‘z so‘zlari bilan: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirqizlarning (qirg‘izlarning) shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim.”-deydi. Binobarin, Koshg‘ariy turk qabilalari, madaniyati va urf-odatlarini haqida katta hajmli material to‘plash orqali arab muhitiga turk tili va madaniyatini olib kirish, turk tili haqida yozgan grammatikasi bilan arablarga turk tilini o‘rgatishni maqsad qilgan. Shunday qilib, devon; arablarga turk tilini o‘rgatish va turk tilining arab tili kabi boy til ekanligini va undan kam emasligini ko‘rsatish maqsadida yozilgan ilk turkcha lug‘at sifatida ma‘lum.

Devonu Lug‘otit Turk madaniyatimiz va sivilizatsiyamizni ko‘p jihatdan aks ettirish nuqtai nazaridan turkiylikning asosiy asarlaridan biridir. Kitobning yaratilishida turkiy so‘zlar arab qoidalariga ko‘ra tartibga solingan va arabcha muqobillari bilan ma‘nosini topgan. Koshg‘ariy bu asarni yozganidan uch yil o‘tib, Abbosiylar xalifasi Muqtadiy Billohga taqdim etadi. Uning bu xatti-harakatini turkiy tilning ustunliklarini davlat tomonidan ma‘qullash sifatida baholash mumkin. Bundan uch yuz yil o‘tib, lug‘at ilk bor Kilisli Rifatning tuzatishi bilan nashr etilgan; 1943-yili Turk tillari jamiyati a‘zosi Besim Atalay tomonidan arab harflari lotin harflarida o‘z muqobilligini topgan. Devonning o‘zbek nashrlari bo‘yicha ilk tadqiqotlar 1940-yillarda boshlangan. O‘zbekistondagi nashrlar haqida batafsil ma‘lumotni ushbu sondagi maqolalardan olishingiz mumkin.

Koshg‘ariy madrasada tahsil olgani uchun o‘qigan dars materiallari formatini o‘zlashtirib, ijodida mumtoz arab kitoblaridagi usulga amal qilgan. Boshqacha aytganda, Devonu Lug‘otit Turk nomli asar; Muqaddima hamd, salovat va salom bilan boshlanib, ish oxirida duo bilan yakunlanadi. Asar nafaqat lug‘at, balki hikmatlar, she‘rlar, ayot va hadislar, turkiy qabilalarga oid belgilar, sheva farqlariga oid muhim topilmalar, lingvistik materiallar mazmuni bilan ensiklopediya hisoblanadi. Buyuk turk olimi Mahmud Koshg‘ariyni asar yozilganining 950 yilligi munosabati bilan hurmat bilan yod etamiz.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”NING O‘ZBEK TARJIMONLARI VA ULARNING TARJIMALARI NASHRLARI HAQIDA

Jo‘ra Ochilovich XUDOYBERDIYEV
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
katta o‘qituvchisi
E-mail: Jxudayberdi@mail.ru

Annotatsiya: Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari qo‘lyozmasi 1913-yilda Istanbul shahrida topilgan. Ushbu nusxa Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abulfath Damashqiy tomonidan 1266-yil 1-avgustda ko‘chirib tugatilgan. Qo‘lyozma asosida asarning birinchi, ikkinchi jildlari 1915-yilda, uchinchi jildi 1917-yilda chop etilgan. Shundan keyin “Devonu lug‘otit turk” o‘zbek, turk, ozarbayjon, uyg‘ur, qozoq, ingliz, nemis, xitoy, rus, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan. Mazkur maqolada “Devonu lug‘otit turk”ning o‘zbek tarjimonlari tomonidan amalga oshirilgan ozarbayjoncha, o‘zbekcha, ruscha tarjimalari va ularning ayrim xususiyatlari haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *“Devonu lug‘otit turk”, qo‘lyozma, chop etish, tarjimalar, ozarbayjoncha, o‘zbekcha, ruscha, Xolid Said Xo‘jayev, Solih Mutallibov, Alibek Rustamov.*

ABOUT UZBEK TRANSLATORS OF “DEVONU LUGATIT TURK” AND PUBLICATIONS OF THEIR TRANSLATIONS

Abstract: The manuscript of “Devonu Lugatit Turk” by Mahmud Koshgari was discovered in Istanbul in 1913. This particular copy was transcribed by Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abulfat in Damascus on August 1, 1266. Utilizing this manuscript, the first and second volumes of the work were published in 1915, followed by the third volume in 1917. Subsequently, “Devonu Lugatit Turk” has been translated into a variety of languages, including Uzbek, Turkish, Uyghur, Azerbaijani, Kazakh, English, German, Chinese, Russian, and Persian. This article examines the Azerbaijani, Uzbek, and Russian translations, with a focus on the distinct features of these translations as rendered by Uzbek scholars.

Key words: *“Devonu Lugatit Turk”, manuscript, print, translations, Azerbaijani, Uzbek, Russian, Khalid Said Khojaye, Salih Mutalibov, Alibek Rustamov.*

ОБ УЗБЕКСКИХ ПЕРЕВОДЧИКАХ “ДЕВОНУ ЛУГАТИТ ТУРК” И ИЗДАНИЯХ ИХ ПЕРЕВОДОВ

Аннотация: Рукопись “Девону луготит турк” Махмуда Кошгари была найдена в Стамбуле в 1913 году. Данный список был переписан Мухаммадом ибн Абу Бакром ибн Абулфатом Дамашки 1 августа 1266 года. На основе рукописи в 1915 году были изданы первый и второй тома произведения, а в 1917 году – третий том. После этого “Девону луготит турк” перевели на узбекский, турецкий, уйгурский, азербайджанский, казахский, английский, немецкий, китайский, русский, персидский и другие языки. В данной статье представлена информация об азербайджанском, узбекском и русском переводах “Девону луготит турк”, выполненных узбекскими переводчиками, и некоторых особенностях данных переводах.

Ключевые слова: «*Девону луготит турк*», *рукопись, печать, переводы, азербайджанский, узбекский, русский, Халид Саид Хаджаев, Салих Муталибов, Алибек Рустамов.*

Kirish. Tarixda insoniyat taraqqiyoti bosqichlarini aks ettirgan asarlar, manbalar ko‘plab yaratilgan. Ularda insoniyat tarixi, erishgan yutuq va kashfiyotlari, kamchilik va xatolari aks etgan. Bunday asarlar, topildiqlar ma’lum bir xalqqa yoki bir hududdagi xalqlarga tegishli bo‘lishi bilan birga, butun bashariyatning ham bebaho mulki hisoblanadi. Ana shunday noyob asarlardan biri Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lugotit turk” (keyingi o‘rinlarda DLT deb beriladi) asari hisoblanadi. Unda XI yuzyillikkacha Markaziy Osiyoda yashagan ajdodlarimiz hayoti bilan bog‘liq barcha ma’lumotlar atroflicha qamrab olingan.

Mahmud Koshg‘ariy hayoti va uning DLT asarining o‘rganilishi bo‘yicha O‘zbekistonda muhim ishlar amalga oshirilganligi xorijiy davlatlardagi tadqiqotlarda e’tirof etib kelinmoqda. Ayniqsa, keyingi davrlarda A.Rustamovning DLTning rus tilidagi tarjimasining Moskvada chop etilishi [28], A.Rustamov, H.Boltaboyev, B.Isabekovlar tomonidan 2016-yilda DLTning 3 jild holida [34; 35; 36], Q.Sodiqovning 2017-yilda DLTning 1 jildda [33] nashrga tayyorlanib qayta chop etilishi o‘zbek koshg‘ariyshunosligidagi muhim ishlardan bo‘ldi.

Bugungi kunda Mahmud Koshg‘ariy hayoti va DLTning xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilishi va ularning O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar bilan mushtarak hamda o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, tegishli xulosalar chiqarib, bajariladigan tadqiqotlar yo‘nalishlarini belgilash zarur. Shuningdek, DLT asari tarjimalarining qiyosiy tadqiqiga ham katta ehtiyoj bor. Shu ma’noda, DLTning o‘zbek tarjimonlari va ularning tarjimalari nashrlari ayrim masalalariga to‘xtalib o‘tish ham muhim ahamiyatga ega.

“Devonu lug‘otit turk”ning X.S.Xo‘jayev tarjimasini va uning nashri. X.S.Xo‘jayev hayoti va faoliyati, uning DLT asarini tarjima qilishi ham tarjima qo‘lyozmasi taqdiri bilan bog‘liq turli fikrlar e’lon qilingan [2; 8; 9; 16; 17; 18; 19; 37; 40; 44; 45; 46; 51; 52; 53].

A.N.Kononovning ma’lumotiga ko‘ra, Mahmud Koshg‘ariyning DLT asarini ozarbayjon tiliga tarjima qilish bo‘yicha XX asrning 30-yillari o‘rtalarida asli o‘zbek millatiga mansub X.S.Xo‘jayev rahbarligida hay’at tuzilgan. Tarjima 1935-yilda boshlanib, 1937-yilda tugatilgan. Shu yili S.E.Malov va A.N.Kononovlar tomonidan tahrir qilingan. 60-yillarda mazkur tarjimani takomillashtirish ustida A.Demirchizoda, A.Jafar va J.Afandiyevlar ish olib borishgan va nashrga topshirilgan:

“В середине 30-х годов Азербайджанский филиал Академии наук СССР создал во главе с Х.С.Ходжаевым комиссию по переводу “Дивана” Махмуда Кашгарского на азербайджанский язык. К 1939 г. перевод был завершён и в том же году отредактирован С.Е.Маловым и А.Н.Кононовым.

В 60-х годах продолжалась работа по совершенствованию азербайджанского перевода и введению русских соответствий; эту работу выполнили известные азербайджанские филологи: А.Демирчизаде, А.Джафар, Дж.Эфендиев (работа находится в печати)” [24.4].

“Qatag‘on qilingan turkologiya” asarida A.N.Kononov noaniqlikka yo‘l qo‘yganligi qayd etilgan: “А.Н.Кононов допустил неточность, говоря о “комиссии во главе с Х.С.Ходжаевым”” [19.101].

Ushbu tarjima qo‘lyozmasi hozirda Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutida saqlanmoqda [14.52; 40.96].

Ozarbayjonlik olim A.Quliyev yozadi: “SSSR Fanlar akademiyasi Ozarbayjon filialining maxsus ko‘rsatmasi bilan M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarining tarjimasi unga topshirilgan edi. 1936-yil aprelda muallif 70-80 bosma taboq hajmida bo‘ladigan bu lug‘atning birinchi jildi tayyor bo‘lganligi, qolgan jildlar ustida ish olib borayotgani haqida ma‘lumot beradi. Xuddi shu yilda Akademiya “Asarlari”da (31-tom) X.Saidning tarjimachilik bilan bog‘liq salmoqli bir maqolasi chop etiladi.

1937-yil 1-iyunda X.Said Kabarda-Bolqor Viloyat Komitetiga – Kulukov nomiga yozgan xatida “Devon” haqida ma‘lumot beradi...

X.Said tarjimasining keyingi taqdiri nima bo‘ldi?

Bir ma‘lumotga ko‘ra, 1939-yilda “Devon” to‘liq tarjima qilingan va shu yili S.Malov hamda A.Kononov tomonidan tahrir qilingan. Hatto nashrga ham berilgan. Lekin 60-yillarda tarjima ustida yangidan takomillashtirish ishlari (A.Temirchizoda, A.Ja‘far, A.Afandiyev) olib borilgan (qarang ST.1973, № 1. 4-bet).

O‘shandan beri “Devon”ning tarjimasi har zamonda bir nufuzli “komissiyalar” tomonidan yo‘qlangan, “takomillashtirishlar” asnosida tarjimonlar ro‘yxati xiyla familiyalar ilova qilina-qilina uzayib borgan... X.Saidning nomi ro‘yxatda hamon saqlanib qolganiga hayronsan kishi” [18.24-25]

Shorasul Zunnun xotiralarida Xolid Said 1922-yildan DLT tarjimasi bilan shug‘llangani qayd etilgan: “Xolid Saidni 1921-yildan beri bilardim. U Munavvarqorining yaqin do‘sti bo‘lib, men u kishining qo‘llarida Toshkent oliy muallimlar institutida tahsil ko‘rganman. Elbek, Majid Qodiriy, Nosir Saidiylar ham Xolid Saidning shogirdlari sanaladi. Domla o‘ta zukko bo‘lib, arab, fors, o‘ris, turk, nemis, ingliz tillarini bilardilar. Davr allomalari – Asatullo Xo‘jaxonov, Shahid Ehson Musayev, G‘ozi Olim, Ashurali Zohiriy, Fitrat, Abdurahmon Sa‘diy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Laziz Azizdodalar Xolid Saidni juda hurmat qilishardi.

Men olimni oxirgi marta 1922-yilda ko‘rgandim. Bu paytda domla “Inpros”da ishlardi. O‘shanda “Devonu lug‘otit turk”ning 1-jildini arab tilidan ozarbayjon tiliga o‘girayotganini aytgandi. Bokuga – oldingi ishlagan joyiga qaytajagini ham birrov ta‘kidlab o‘tgandi” [53].

A.Tagirzoda Xolid Said “Devon” tarjimasi bilan 1935-yildan shug‘ullanganini qayd etadi [40.96].

“Qatag‘on qilingan turkologiya” kitobining mualliflaricha, X.S.Xo‘jayevning barcha ishlari Ozarbayjon NKVDsi tomonidan yo‘qotilgan, lug‘at kontrevolyutsion asar, deb e‘lon qilingan. 1939-yilda Ozarbayjon Fanlar Akademiyasi DLTni qayta tarjima etmoqchi bo‘lib, komissiya tuzgan. Asarning tarjimonlari ham, tahrirchilari ham o‘zgargan. Akram Jafarning 1983-yil 25-dekabrda F.D.Ashninga yozgan xatidagi ma‘lumotga ko‘ra, komissiyaga P.K.Juze rahbarlik qilgan, tarjimonlar orasida Said Nizomiy, Ismixanov, A.Demirchizoda, A.Aliasqarzoda bo‘lgan, Jalol Afandiyev va M.P.Askarli tarjimini tahrir qilishda qatnashgan. 1941-yilda tarjima yakunlangan hamda S.Y.Malov va A.N.Kononovlar tomonidan tahrir qilingan. Lekin ushbu tarjimini nashr qilish maqsadga muvofiq emas deb topilgan. 1946-1947-yillarda hamda 1958-yilda tarjima qo‘lyozmasi yana chop etishga tayyorlangan, lekin nashr qilinmasdan qolgan: “Остается сказать о переводе словаря Махмуда Кашгарского. Весь труд Ходжаева погиб, уничтоженный в НКВД Азербайджана. Словарь объявлялся на следствии “контрреволюционным”, однако в 1939 г. В АЗФАН решили заново начать его перевод. Именно тогда и была создана комиссия, о которой упоминает А.Н.Кононов. Как свидетельствовал Акрем Джафар в письме Ф.Д.Ашнину от 25.12.1983, коллектив возглавил старейший Бакинский востоковед профессор П.К.Жузе; среди переводчиков были Саид

Низами, Исмиханов, А.Демирчи-заде, А.Алиаскер-заде, в редактировании участвовали Джалал Эфендиев и М.Р.Эскерли. Именно этот перевод, а не Ходжаева и редактировал А.Н.Кононов вместе с С.Е.Маловым. Новый перевод был завершен в 1941 г., но, как писал Акрем Джафар, “печатание этой книги было сочтено нецелесообразным”. В 1946-1947 гг. перевод вновь готовился к печати, но и тогда его не издали. Наконец в 1958 г., как сказано в том же письме, “вопрос об издании перевода “Дивана” опять был выдвинут, и новая редакция с учетом норм современного азербайджанского литературного языка, его новой орфографии, терминологии и т.д., была поручена А.Демирчи-заде, Акрему Джафару, Дж. Эфендиеву. В основу новой редакции положена фотокопия рукописи “Дивана”. Новый вариант был закончен, но азербайджанскому переводу словаря фатально не везло: как писал Акрем Джафар “почему он не был издан, об этом я должен написать целый роман”. В итоге первым и единственным переводом словаря в СССР стал узбекский, изданный в 1960-1963 гг. а азербайджанского (как и русского) издания нет и по сей день” [19.105-106].

DLTning ozarbayjon tiliga qilingan tarjimasi xususida asarning turkcha tarjimoni Besim Atalay to‘xtalib, SSSR Fanlar akademiyasi Ozarbayjom filiali olti yil avval Xolid Said rahbarligida bir tarjima komissiyasi tuzib, ish boshlagani, ular tarjimani amalga oshirish uchun dastur tuzib, namunalarini e‘lon qilishganini qayd etib o‘tgan. Tarjimaning kamchiligi sifatida “Lotin harflari bilan yozilgan ushbu namunalarning yozilishi xato bo‘lganligi ko‘rinmoqda. So‘zlar hoqoniya turkchasi – eski koshg‘ar tilida yozilish o‘rniga bugungi Turkiston xalqi shaharlari aholisining jonli so‘zlashuv tiliga moslab yozilgan”, degan fikrni bildirgan [3.XXXI].

Bizningcha, Besim Atalayning ushbu fikri munozaralidir. Chunki Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi asardagi so‘zlarni turkiy qabilalar yashayotgan hududlardan yillar davomida to‘plagan, ularning til xususiyatlarini tahlil qilgani, tillarning eng kichik farqli jihatlariga ham jiddiy e‘tibor bergani, natijada bu tillarni juda yaxshi o‘rgangani, puxta tartibga solganini urg‘ulab o‘tgan. U yozadi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirqizlarning (qirg‘izlarning) shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlah uchun qildim... Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirqiz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim” [30.44]. Koshg‘ariyning yozishicha, asarga faqat iste‘molda bo‘lgan so‘zlargina kiritilgan: “Men iste‘moldagi so‘zlarnigina berdim, iste‘moldan chiqqanlarini tashladim” [30.46].

DLTdagi so‘zlarni Turkiston hududida yashayotgan, xususan o‘zbek shevalari bilan qiyoslab o‘rganilganda ko‘pchilik so‘zlar o‘zbek adabiy tilida, o‘zbek shevalarida mavjudligini kuzatish mumkin. Shu ma‘noda, Besim Atalayning “So‘zlar hoqoniya turkchasi – eski koshg‘ar tilida yozilish o‘rniga bugungi Turkiston xalqi shaharlari aholisining jonli so‘zlashuv tiliga moslab yozilgan”, degan qarashi ilmiy jihatdan asoslanmagan. Bu muammoga DLTdagi aniq dalillar bilan mavjud shevalardagi so‘zlarni solishtirib, xolis tahlil qilish orqali aniqlik kiritish mumkin.

X.S.Xo‘jayevning 1937-yilining 1-iyunida Qabarda–Bolqor viloyati qo‘mitasiga – Kumikovga yozgan xatida tarjimani X.S.Xo‘jayevning o‘zi 1935-yil 1-sentabrda boshlab 1937-yilning aprelida tugatgani, hozirda uni nashrga tayyorlash bilan bandligi hamda tarjima matnini mashhur sharqshunos I.Krachkovskiy va taniqli turkolog S.Malovlarga tahrir ettirmoqchi bo‘lganligi aniq qayd etilgan:

“Письмо Ваше от 4/III 37 г. получил и с большим удовлетворением прочел его. Извиняюсь за поздний ответ, сообщаю для Вашего сведения следующее:

Единственный экземпляр труда Махмуда Кашгарского найден в Стамбуле и там размножен.

1. Я приступил к переводу и переработке этого труда с 1-го сентября 1935 года и закончил его в апреле месяце с.г.

2. В настоящее время я занят подготовкой к печати этого труда и к 1-му июля с.г. надеюсь препроводить редакторам в Ленинград академику Крачковскому и профессору Малову.

3. В. АзФАНе имеется только один экземпляр этого труда и поэтому не могу послать такового. Для ознакомления же Вас с характером и содержанием этого труда посылаю Вам свою статью по этому вопросу.

4. Проездом в Ленинград (25 июня) я с удовольствием могу сделать остановку в Нальчике и сделать подробное сообщение, если Вас будет желание и интерес по подробнее ознакомиться с содержанием этой книги в связи с отношением этой книги к кумыкскому и карачаево-балкарскому языкам. Заранее прошу известить меня об этом.

Заканчивая свое письмо, выражаю свою готовность быть всячески полезным Вам в этом деле.

Ходжаев Ч.С.» [19.102-103].

X.S.Xo‘jayev 1935-yil 19-noyabrda yozgan hisobotida tarjima taxminan 70-80 bosma taboq bo‘lib, birinchi marotaba tarjima qilingani, SSSR Fanlar akademiyasining Ozarbayjon filiali topshirig‘i bilan nashrga tayyorlanayotgani, I jild tayyor bo‘lib, qolgan jildlari nashrga tayyorlanayotgani va o‘zining Koshg‘ariy haqidagi maqolasi berilayotganini qayd etgan. Mashinkada ko‘chirilgan ushbu 11 sahifali maqola X.S.Xo‘jayevning qiziga taqdim etilgan [19.101].

Ushbu masalalarga DLTning X.S.Xo‘jayev tarjimasi nashr qilinishi va undagi materiallar oydinlik kiritadi [8]. Asarga Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasining prezidenti Isa Habibbayli o‘ng so‘z yozgan. [8.5-14]. Olim DLTning X.S.Xo‘jayev tomonidan amalga oshirilgan tarjima lotin alifbosidagi ilk tarjima ekanligini urg‘ulagan.

Asarni tartiblagan, kirish va sharhlar muallifi Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Nizomiy nomidagi Tilshunoslik instituti direktori, professor Nodi Mammadali. Ilmiy muharrir Turk Tili Qurumi boshlig‘i professor Osman Mert.

Nodir Mammadalining “Kirish”ida Mahmud Koshg‘ariy, uning DLT asari, yozilgan davri, DLTning tadqiq qilinishi tarixi, Xolid Said Xo‘jayev va DLT, Xolid Said Xo‘jayevning tarjimasi, tarjima qo‘lyozmasining taqdiri bilan bog‘liq masalalarni tahlil qilingan [8.15-65].

N.Mammadalining yozishicha, 2021-yilda Tilshunoslik institutiga direktor etib tayinlanganining ilk kunlaridan akademik Isa Habibbaylining tashabbusi bilan X.S.Xo‘jayev tarjimasi qo‘lozmasini izlab topish harakati boshlangan. 2023-yil 19-yanvar kuni X.S.Xo‘jayev tarjimasi qo‘lozmasi topilgan.

Qo‘lyozma o‘sha davr lotin alifbosida sariq rangli qog‘ozga mashinkada yozilgan, turli bo‘yoqlarda tahrir qilinganligi uchun hech kimning diqqatini tortmagan, kutubxona kartotekalarida ham qayd etilmagan. 2016-yili kutubxonaga yangi direktor lavozimiga tayinlangan Sevil Zulfiqorova yo‘qotiladigan yoki makilaturaga topshiriladigan bog‘lamlarni institutga topshirgan. Shularning ichida DLTning Xolid Said Xo‘jayev tomonidan qilingan tarjima qo‘lyozmasi ham bo‘lgan.

315 sahifalik birinchi jildni S.Y.Malov va A.N.Kononov 1939-yil 16-mayda tahrir qilib bo‘lganliklari haqida rus tilida qayd etilgan: “Все 315 стр. отредактировали научн. редакторы

чл-кор. Ан СССР проф. Сер.Малов, А.Кононов” [8.44-45]. Hatto bu yerda taniqli ozarbayjon olimlari tarjimonlar sifatida ko‘rsatilgan: “ПЕРЕВОДИЛИ: 1. Профессор П.К.Жузе 2. А.Алескерзаде 3. Ф.Исмиханов 4. А.Демирчизаде РЕДАКТОРЫ: Профессор С.М.Малов” [8.46]. Isa Habibbaylining taxmin qilishicha bu A.N.Kononov va S.Y.Malovlarning ilovalaridir. Chunki yuqorida qayd etilgan olimlarning na shaxsiy qaydlarida, na ilmiy ishlarida DLTni tarjima etganliklari haqida biror qayd uchramaydi. [8.46-47]. Undan tashqari, tarjimonlar sifatida ko‘rsatilgan Mirza Askarli va R.K.Juze qo‘lyozmani tahrir etganlari haqida qayd etilgan: “315 sahifadan iborat ozarbayjoncha tarjimini arabchasi bilan muqoyasa etib tahrir etdik. Tahrirchilar: M.Askarli va Juze. 25.IV.1940” [8.47].

DLT tarjimasini qo‘lyozmasini turli davrlarda turli olimlar tomonidan tahrir qilingani haqida qo‘lyozmaning o‘zida rus va ozarbayjon tillarida qayd etilgan: “Стр. 316-630 отредактировали научн. редакторы проф. Сер. Малов, А.Кононов. Баку, 1 авг., 1939”. “316 sahifadan 630-sahifaga qadar ozarbayjoncha matnini arabchasi bilan qiyoslab tahrir etdik. Tahrirchilar: 1. M.Askarli 2. Juze”. “Стр. 631-861 отредактировали проф. Сер. Малов, А.Кононов. 16. VIII.39”. “631-861-sahifaga qadar arabcha matni bilan tarjimasini va leksikografik jihatdan tahrir etildi. Tahrirchilar: N.Askarli va boshqa tahrirchilarning imzosi. 20.V.1940. Kech soat 10”. “1-861-sahifalarni arabcha matni bilan birlikda yana lug‘atni tahrir etdik. 27.XII.1946-yil. Tahrirchilar: Ask M.R. (Askarli M.R.), Afandiyev C., Xalifazoda” [45-51].

Tarjima qo‘lyozmasini tahrir etganlar tomonidan qilingan ushbu qaydlar va boshqa materiallar DLTning ozarbayjon tiliga qilingan tarjimasini X.S.Xo‘jayev tomonidan amalga oshirilganini isbotlaydi.

64-65-sahifalar orasida DLT ozarbayjon tilidagi tarjimasini qo‘lyozmasining 16 betlik rangli rasmi namuna sifatida berilgan. Undan tarjima qo‘lyozmasi qay shaklda tahrir qilinganini bilish mumkin.

67-72-betlarda Xolid Said Xo‘jayevning SSSR Fanlar akademiyasi Ozarbayjon filiali nashrida, “Sovetskaya turkologiya” jurnalining 1988-yil 3-sonida qayta e‘lon qilingan rus tilidagi maqolasi ozarbayjon tiliga tarjima qilib berilgan.

75-544-betlarda DLTning tarjimasini berilgan.

DLTdagi maqolalar bosh so‘zlari rus tiliga ham tarjima qilingan, har bir maqola raqamlangan.

Nodir Mammadli tomonidan yozilgan “Kirish”da ayrim aniqlashtirilishi kerak bo‘lgan o‘rinlar ham bor. Masalan Istanbul kutubxonasida saqlangan DLTning asl nusxasi asosida Kilisli Rifat 1917-yilda arab yozuvida nashrga tayyorlagani haqida ma‘lumot berilgan [8.31]. Aslida Kilisli Rifat nashri hijriy 1333-1335, milodiy 1915-1917-yillarda amalga oshirilgan [14.48; 45.192; 46.84]. 2. Kilisli Rifat DLT qo‘lyozmasining arab alifbosidagi faksimilesini 3 jildda nashr qilgani yozilgan, lekin bu faksimile bo‘lmasdan, davlat bosmaxonasi orqali chop etilgani, chop etish jarayoni bilan bog‘liq vujudga kelgan muammolar, ularning bartaraf etilishi haqida Kilisli Rifat xotiralarida atroflicha yoritilgan [23.186-187].

22 daftar hajmida bo‘lgan bu asar Maorif Nozirliigi tomonidan 120 liraga sotib olingani, Turkiya Respublikasi e‘lon qilingandan keyin Otaturkning ko‘rgatmasi bilan lotin alifbosida nashr etish uchun Chanqaya saroyiga keltirilgani, ammo daftarlar noma‘lum sabablarga ko‘ra yo‘qolgani qayd etilgan [8.32]. Amalda Kilisli Rifat 22 daftardagi matnni chop ettirmagan. U Ali Amiriy topgan asar qo‘lyozmasini tartiblab, betlarini qo‘yib, ayrim o‘chib ketgan, o‘qilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni tiklagan va nashrga tayyorlagan. 22 daftardagi matn esa Kilisli Rifat tomonidan DLTning turk tiliga qilingan birinchi tarjima qo‘lyozmasi edi. U bu haqda shunday yozadi: “Kitobni bir

tarafdin tartiblab yozganim, ikkinchi tarafdin matbaada vaqtdan yutqazganim uchun asarni tarjima qilishga vaqt topa olmagan edim. Kitob bosilib chiqqanidan keyin fursat topib, asar tarjimasi bilan shug‘ullandim. Tarjimani bitirdim. 22 daftar bo‘ldi” [4; 23.187]. Ushbu daftarlar sotib olingandan keyin tarjima hay‘atiga ko‘rib chiqish uchun yuborilgan. Tarjima hay‘ati tugatilgandan keyin esa daftarlar universitet kutubxonasiga berilgan.

Keyinchalik DLTni Kilisli Rifatga tarjima qildirishmoqchi bo‘lishadi va unga go‘yoki o‘z daftarlarini pochta orqali yuborishadi. Bu haqda Kilisli Rifatning o‘zi shunday xotirlaydi: “Ko‘rib chiqdim. Bu daftarlardagi tarjima mening daftarlarimdan ko‘chirib olingan. Faqat o‘ta tajribasiz yoki bir necha kotib tomonidan boshdan oxirigacha xatolar bilan birga satrlar, hatto, sahifalar tashlab yozilgan edi. Buni ko‘rib tarjimaning qanday holga tushganiga achindim” [23.189-190].

Kilisli Rifat xotiralaridagi ma‘lumotga ko‘ra, ushbu daftarlarni Turk tili qurumining birinchi rahbari bo‘lgan Samihbeydan Otaturk so‘rab oldirgan, u yo‘qolmagan. Samihbey Kilisli Rifatga shunday ma‘lumot bergan: “Men daftarlarni olib kotiblarga berdim. Bir suratini ham oldirdim. Daftarlaringizning aslini G‘ozi posho hazratlariga taqdim etdim. G‘ozi posho hazratlari mendan “Sizda bu daftarlarning bir surati bormi?” deb so‘radilar. Men ham “bor” dedim. “Unday bo‘lsa, bu daftarlar meniki bo‘lsin. Men ora-sira o‘qiyman”, dedilar. Sizning daftarlaringiz G‘ozi posho hazratlarining shaxsiy kutubxonalarida. Tabiiyki, ularni qidirmaysiz, dedi” [23.190].

“Kirish”ning 34-betida “Devon”ning ruscha tarjimasi 1969-yilda V.M.Nadelyayev, D.M.Nasilov, E.R.Tenishev va A.M.Shcherbakning redaktorligi bilan Leningradda nashr qilingan” [34], degan ma‘lumot keltirilgan va A.N.Kononovning maqolasiga (Кононов А.Н. Изучение “Дивану лүгат ит-түрк” Махмуда Кашгарского в Советском Союзе // Советская тюркология. –Баку. 1973. № 1. –С. 3-6) havola berilgan. Kononovning ko‘rsatilgan maqolasida esa bunday ma‘lumot yo‘q.

“Devonu lug‘otit turk”ning S.Mutallibov tarjimasi va uning nashrlari. XX yuzyillikning qirqinchi yillari boshlaridan DLTni o‘zbek tiliga tarjima qilish ustida Solih Mutallibov ishlay boshlaydi. Olimning tarjimasi 1960-1963-yillar orasida Toshkentda “Fan” nashriyotida 3000 nusxada chop etilgan [30; 31; 32]. Asar A.K.Borovkov, G‘A.Abdurahmonov, O.Usmonov, T.Salimov, X.Komilov, J.Tojiboyev, U.Karimovlarning katta yordam va maslahatlari, Til va adabiyot institutining direktori lavozimida ishlagan A.Qayumovning g‘amxo‘rligi, shuningdek, I.Qo‘chqortoyev, H.Nizomov, M.Turobova, G‘.Karimov, R.Baxtiyorova, G‘.Salomov, S.Nizomiddinova, S.Ferdouslarning nashrga tayyorlashda qunt bilan ishlaganliklari, H.Sulaymonovning arabcha matnlar ustiga zeru zabar qo‘yishdagi xizmatlari bilan chop etilgan.

Asarning birinchi jildida S.Mutallibovning “XI asr buyuk filologlari va ularning noyob asarlari” nomli katta hajmli maqolasi [30.7-39], DLTning muqaddimasi [30.43-69], lug‘at [30.70-482], qabila va shaharlar, ayrim joy nomlari haqidagi izohlar [30.485-492] berilgan.

2-jildida S.Mutallibovning “So‘z boshi o‘rnida” nomli maqolasi [31.5-7], lug‘at [31.9-421], jildning oxirida “Devon”da qabilalar masalasi [31.422-424], “Jikil qabilasi” [31.425-426], “Tot” [31.427] maqolachalari joy olgan.

DLTning 3-jildida tarjimonning “Bir necha so‘z” nomdagi maqolasi [32.5-7], lug‘at [32.8-453], oxirida “Izohlar” [32.454-457], “Qabilalar haqida”gi [32.458-461] ma‘lumotlar keltirilgan.

DLTning o‘zbek tilidagi tarjimasi mutaxassislar tomonidan yuqori baholangan, munosabat bildirilgan [24; 25; 41; 44; 45; 46; 50]. DLTni ozarbayjon tiliga tarjima qilgan Ramiz Askar S.Mutallibov tarjimasining ahamiyati va sifati haqida shunday yozgan: “Asar olimlar va keng kitobxonlar tomonidan kata rag‘bat ko‘rdi, uzoq yillar davomida sovet turkologlari orasida yagona

manba bo‘lib xizmat qildi, oxirgi jildi 40 yil oldin nashr qilinganiga qaramasdan, bu tarjima hanuz “Devonu lug‘otit turk”ning eng go‘zal tarjimalaridan biri bo‘lib qolmoqdadir” [13.33-44].

Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasining prezidenti, akademik Isa Habibbayli S.Mutallibov tarjimasini “Devonu lug‘ot-it-turk” kitobini sovet hokimiyati davrida, 1967-yilda Solih Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima etilib Toshkentda chop etilishi faqat ilmiy jihatdan emas, ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham juda ahamiyatli hodisadir, buyuk fidokorlik namunasidir” [2.5-9], deb baholagan.

DLTni uyg‘ur tiliga tarjima qilganlar esa S.Mutallibov tarjimasini haqida shunday yozishgan:

“Toshkentda, 1960-yildan e‘tiboran “Devonu lug‘at-it-turk”ning Solih Mutallibov tarafidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan nusxasi nashr qilina boshlandi. Bu tarjimon o‘zbek tiliga tarjima qilishda “Devonu lug‘at-it-turk”ning 1933-1935-yillari Istanbulda bosilgan bosma nusxasini asos qilib va Besim Atalayning turkcha tarjima nusxasidan to‘liq foydalangan. O‘zbek tilidagi bu tarjima nusxasining I jildiga Solih Mutallibov “XI asrning buyuk filologlari va ularning noyob asarlari” degan mavzuda uzun maqola, II jild boshiga “So‘zboshi o‘rnida” deb kirish so‘z bergandan boshqa, oxiriga yer, qabila, shaxs nomlari va ayrim so‘zlar haqida birmuncha izohlar bergan. S.Mutallibov o‘zining bu maqola va izohlarida Mahmud Koshg‘ariyning o‘zini o‘zbek va uning asarini faqat o‘zbek tilining namunasi deb “isbotlash”ga noo‘rin aqliy kuch sarf qilgan. “Devonu lug‘at-it-turk”ning morfologik, dialektologik, leksikologik va grammatik tarafidan puxta tekshirib, uning asos qilingan tilini “uyg‘ur tili” deb hukm chiqargan Brokelmann va boshqalarni ayblagan. Bundan tashqari, S.Mutallibov ba‘zi “qadimgi turkiy ibora”larni yaxshi tushunmaganligi, ba‘zi so‘zlarning arabcha izohini yaxshi farq etolmaganligi uchun, birmuncha joylarda xatolikka yo‘l qo‘ygan” [1.46-47].

Ushbu fikrlarda aniqlik kiritish zarur bo‘lgan o‘rinlar bor.

1. “Tarjimon o‘zbek tiliga tarjima qilishda “Devonu lug‘at-it-turk”ning 1933-1935-yillari Istanbulda bosilgan bosma nusxasini asos qilib va Besim Atalayning turkcha tarjima nusxasidan to‘liq foydalangan” degan jumladagi DLTning Istanbulda bosilgan nusxasi 1933-1935-yillarda emas, hijriy 1333-1335, milodiy 1915-1917-yillar ekanligi ko‘plab ilmiy ishlarda qayd etilgan. Solih Mutallibov u haqda shunday ma‘lumot bergan: “Biz o‘z tarjimamizda (Devon tarjimasida) Istanbulda bosilgan bosma nusxa asosida ish ko‘rdik. Bosma nusxa katta hajimli uch tomlikdir.

I tom – 436 bet, II tom – 294 bet, III tom - 333 bet. I – II tomlar hijriy hisobda 1333-yilda, III tom 1335-yilda bosilgandir. Bu qimmatli asarni bostirish qanchalik muhim bo‘lsa, bu ishda u yagona nusxaning butun xususiyatlarini to‘la berish, zarur o‘rinlarni izohlash va nihoyat ehtiyotkorlik bilan ish olib borish shuncha muhim va zarur edi. Lekin bosma nusxada bu asosiy qoida unutilgan. Biz o‘z tarjimamizni Basim Atalay nusxasiga solishtirib katta foyda oldik” [30.27-28]. S. Mutallibov keyinroq DLT tarjimasini Brokelmann va Basim Atalay tarjimalariga qiyoslagani haqida ma‘lumot bergan [30.37]. Bosma nusxadagi xatolik va kamchiliklar haqida T.A. Borovkov ham o‘z tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tgan [20; 21.133-135.]

2. “S. Mutallibov o‘zining bu maqola va izohlarida Mahmud Koshg‘ariyning o‘zini o‘zbek va uning asarini faqat o‘zbek tilining namunasi deb “isbotlash”ga noo‘rin aqliy kuch sarf qilgan” gapidagi fikr ham to‘g‘ri emas. S. Mutallibov qayd etilgan maqola va izohlarida “Mahmud Koshg‘ariy o‘zbek, uning asari faqat o‘zbek tili namunasi” degan fikr uchramaydi. O‘zbek adabiy tili, tarixiy asarlari hamda shevalaridagi aniq dalillar asosida “XI asr yozma yodgorliklari til faktlarining asosiy qismi hozirgi o‘zbek tilida barqarordir” [30.35-37]. “Devondagi ko‘pchilik

soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida mavjud boʻlsa ham, baʼzilari faqat ayrim dialektlarda yoki qadimgi klassik adabiyotlarda saqlanib qolgan” [31.6.], degan xulosani bergan.

“Turkiy soʻzlar devoni” (“Devonu lugʻoti-t-turk”)ning Alibek Rustamov, Hamidulla Boltaboyev va Baxtiyor Isabekov nashri. Ushbu nashr “Mumtoz soʻz” nashriyotida 300 nusxada chop etilgan. Tarjimon Solihqori Mutallibov. Asarning I jildini Alibek Rustamov va Hamidulla Boltaboyev nashrga tayyorlagan. Masʼul muharrir Hamidulla Dadaboyev, ilmiy muharrir Baxtiyor Isabekov. Taqrizchilar Abdulhamid Nurmonov, Baxtiyor Abdushukurov.

Hamidulla Boltaboyevning “Ilmi adab ibtidosi” nomli maqolasi [34.3-18], “Ushbu nashrda qoʻllanilgan transkripsiya va belgilarga izohlar” [34.1920], “Devon”ning matni [34.21-345], S.Mutallibov nashrining 483-499-betlaridagi “Izohlar”i, “Ilovalar” berilgan.

DLTning xos xususiyati haqida shunday fikrlar bildirilgan: “Mahmud Koshgʻariy oʻlmas asarining mazkur nashri Solihqori Mutallibov domlaning tarjimasini va nashriga asoslangan holda tayyorlandi va izohlari, asosan saqlandi. Shu bilan birga “Devon”ning qoʻlyozma nusxasi bilan solishtirish natijasida ayrim oʻzgarishlarni amalga oshirishga toʻgʻri keldi. A.Rustamov S.Mutallibov tarjimasini aslyat bilan solishtirib, matnda tushirib qoldirilgan jumla, soʻz va iboralar hamda harflarni tikladi... S.Mutallibov nashrida arab tilida kelgan oyati karima, hadis va ayrim sheʼrlarning oʻqilishi va tarjimasini berilmagan edi, ularning kirill yozuvidagi transliteratsiyasi bilan birga tarjimasini ham ushbu nashrda keltirildi...

“Devon”ning 1-jildi A.Rustamov tomonidan umumiy tahrir qilindi va nashrga tayyor boʻlganidan soʻng f.f.n. B.Isabekov matni Olmaota nashri va V.Radlov tarjimasini bilan solishtirib chiqdi va zarur oʻzgarishlarni qayd etib, ularni izohlarda (B.I. tarzida) koʻrsatib bordi. Shuningdek matni qayta tahrirdan oʻtkazdi va tarjimadagi ayrim saktaliklarni isloh qilishga muvaffaq boʻldi” [34.16-17].

II jild. Tarjimon Solihqori Mutallibov. Hamidulla Boltaboyev va Baxtiyor Isabekov nashrga tayyorlagan. Masʼul muharrir Hamidulla Dadaboyev, ilmiy muharrir Mahkam Mahmudov. Taqrizchilar Nizomiddin Mahmudov, Abdulhay Sobirov.

S.Mutallibov nashrining 5-7-betlarida berilgan “Bir necha soʻz” nashrning 299-300-betlarida, S.Mutallibov nashrining 5-7-betlaridagi izohlar 296-298-betlarda keltirilgan.

Nashrning Hamidulla Boltaboyev tomonidan yozilgan “Nashriyotdan: ikkinchi jild nashri haqida” nomli maqola 3-5-betlarda keltirilgan. Unda nashrning ayrim oʻziga xos xususiyatlari shunday qayd etilgan:

“Aslyat bilan solishtirish natijasida matnda tushirib qoldirilgan jumla, soʻz va iboralar hamda harflar tiklandi. Asl nusxaning sahifa raqamlari (42) tarzda matn orasiga qoʻyib chiqildi (asl nusxa sahifalanmagani uchun varaqlar boʻyicha emas, sahifalar boʻyicha raqamlandi). S.Mutallibov nashrida arab tilida kelgan oyati karima, hadis va ayrim sheʼrlarning oʻqilishi va tarjimasini berilmagan edi, ularning kirill yozuvidagi transliteratsiyasi bilan birga tarjimasini ham ushbu nashrda keltirildi” 7-bet “Devon...”ning 2-jildi H.Boltaboyev tomonidan umumiy tahrir qilindi va va f.f.n. B.Isabekov matni Olmaota nashri va “Деревнетюркский словарь” bilan solishtirib chiqdi va zarur oʻzgarishlarni qayd etib, ularni izohlarda (B.I.) tarzida koʻrsatib bordi. Shuningdek matni qayta tahrirdan oʻtkazdi va tarjimadagi ayrim saktaliklarni isloh qilishga muvaffaq boʻldi” [35.4].

“Mahmud Koshgʻariy tomonidan tuzilgan “Musulmon olami xaritasi” 1-jildning ichki muqovasi (forzats)ida berilgani uchun mazkur jildda xaritaning rus tilidagi tarjimasini nusxasi Olmaota nashridan olib, ilova qilindi” [35.5].

7-243-betlarda “Devon” matni, 244-278-betlarda S. Mutallibovning “XI asr buyuk filologlari va ularning noyob asarlari” maqolasi, shuningdek, “Devon”da qabilalar masalasi” (278-283-betlar), “Ba’zi qabilalar haqida” (283-286-betlar) maqolalari joy olgan.

III jild. Tarjimon Solihqori Mutallibov. Hamidulla Boltaboyev va Baxtiyor Isabekov nashrga tayyorlagan. Mas’ul muharrir Hamidulla Dadaboyev, ilmiy muharrir Mahkam Mahmudov. Taqrizchilar Nizomiddin Mahmudov, Samixon Ashurboyev. DLTning matni 3-295-betlarda, S. Mutallibovning izohlari (296-298-betlarda) hamda “Bir necha so‘z” (299-300-betlar) maqolasi berilgan [36].

“Turkiy so‘zlar devoni” (“Devonu lug‘oti-t-turk”)ning Qosimjon Sodiqov nashri. Ushbu nashr Solih Mutallibov tarjimasida asosida qayta ishlangan, to‘ldirilgan, o‘zgartirishlar kiritilgan. Nashrga tayyorlovchi Qosimjon Sodiqov. Mas’ul muharrir Ne‘matulloh Ibrohimov. Tahrir kengashi Alibek Rustamiy, Erkin Vohidov, Nurislom To‘xliyev, Zokirjon Oripov. Taqrizchilar Azizxon Qayumov, Salimaxon Rustamiy.

Nashrni tayyorlashda asar qo‘lyozmasiga tayanilgan. Turkshunoslikda o‘sha davr tiliga bo‘lgan yangicha qarashlar, asarning so‘nggi yillardagi talqinlari inobatga olingan, avvalgi nashrda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tuzatilgan, tushib qolgan o‘rinlar tiklangan. Asarda so‘zlarni izohlash uchun berilgan misollar qo‘lyozmaga solishtirilib, transkripsiyaga qayta o‘girib chiqilgan. Arabcha matndagi kishi, joy, suv otlari, tilshunoslikka oid arabcha atamalar transkripsiyada berilgan [33.10].

Qosimjon Sodiqov S.Mutallibov nashridagi Toshkentning eski nomi yangilish o‘qilgani va u aslida qanday bo‘lishi kerakligi haqida shunday yozadi: “Masalan Toshkentning eski nomi *Tärkän* deb yangilish berilgan. Nashrda shunday:

Tärkän – Shosh [Toshkent]ning ismi. Uning asli *Taş kand* bo‘lib, toshdan qurilgan shahar demakdir (I tom, 414-b.).

Aslida Toshkentning *Tärkän* degan oti bo‘lmagan. Lug‘atdagi so‘z *terkin* dir; u “to‘plangan, yig‘ilgan” degani. Lug‘atda bu so‘z *Taşkän* so‘z maqolasidan avval berilgan bo‘lib, *Taşkän* ga bog‘liqligi yo‘q. Arabcha “To‘plangan har narsaga ham *terkin* so‘zi qo‘llanadi” jumlasida *terkin* so‘zi jumla yakunida turadi. Tarjimada esa ana shu so‘z keyingi *Taşkän* bilan bog‘liq jumlagacha qo‘shib yuborilgan.

Buning qo‘lyozma bo‘yicha tuzatilgani shunday bo‘ladi:

[*terkin* (*terkin*)] *terkin sü* to‘plangan askar. To‘plangan har narsaga ham *terkin* so‘zi qo‘llanadi.

Taşkän (*Tashkan*) – *Šaš* ning oti. Uning asli *Taşkend* bo‘lib, “to‘shdan qurilgan shahar” demakdir. *Abu Bakr Qaffäl Šašī* shu shaharda tug‘ilib o‘sgan (111 b)” [33.10-11].

DLTning Qosimjon Sodiqov nashrida maqolachalarda so‘zlarni izohlash uchun berilgan namunalarning arab yozuvidagi matnlari berilmagan.

“Devonu lug‘otit turk”ning Alibek Rustamov tarjimasida va uning nashri. A.Kononov 1973-yilda Alibek Rustamov DLTni ruschaga tarjima qilib yakunlagani va u yaqin bir-ikki yil ichida nashr etilishi haqida yozgan edi: “Одной из первоочередных задач, стоящих перед советской тюркологией, является перевод “Дивана” на русский язык. Данная задача успешно решается: узбекский филолог А. Рустамов завершил перевод этого памятника на русский язык; причем его перевод основывается на микрофильме с рукописи “Дивана”, хранящейся в Стамбуле в Millet Kütüphanesi, так как издание Килисли Рифата, которому тюркологи обязаны первым типографским воспроизведением “Дивана”, грешит

некоторыми ошибками. Следует надеяться, что перевод А.Рустамова будет издан в ближайшие два-три года”. [24.6]

A.Rustamov DLTni Istanbuldagi Millat kutubxonasida saqlanayotgan yagona qo‘lyozma mikrofilmi asosida tarjima qilgan. Shuningdek tarjima jarayonida Kilisli Rifat nashridan, o‘zbek tilidagi S.Mutallibov, turk tilidagi Basim Atalay, nemis tilidagi K.Brokermann tarjimalaridan ham foydalangan. A.Rustamov Kilisli Rifat tomonidan tushirib qoldirilgan so‘zlarni, ba’zi so‘zlarning o‘qilishida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlagan, S.Mutallibov, Basim Atalay, K.Brokermann tarjimalaridagi xatoliklarni to‘g‘rilagan.

A.Rustamov tarjimasining I jildi 2010-yilda Moskvadagi “Vostochnaya literatura” nashriyotida chop etilgan. Uni turkshunos olim I.V.Kormushin tahrir qilgan. Ushbu nashrning 15-20-betlarida I.V.Kormushinning “So‘z boshi”si va 21-52-betlarida “Kirish”i berilgan.

“Kirish”da “Devon” qo‘lyozmasining topilishi, 1915-1917-yillarda Kilisli Rifat tomonidan chop etilishi, K.Brokermann, Basim Atalay va S.Mutallibovlarning tarjimalari, “Qadimgi turkiy til lug‘ati”ning nashr qilinishi va bu nashrlar ruscha tarjimaga turtki bo‘lganligi haqida keng ma’lumot berilgan.

I.V.Kormushin DLT ruscha tarjimasining amalga oshirilishi, uning ishtirokchilari, tarjima qo‘lyozmasining qayta-qayta tahrir etilishiga ham to‘xtalib o‘tgan. Uning yozishicha, sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi DLTning ruscha tarjimasiga rahbarlik qilishni akademik Andrey Nikolayevich Kononovga topshirgan. Shuningdek, tahrir hay‘atiga professor Nikolay Aleksandrovich Baskakov, professor Viktor Vasilevich Reshetov, “Nauka” nashriyotining tahririyat mudiri Sergey Sergeyevich Selniker, mazkur nashriyot tahrirchisi Yevgeniy Aleksandrovich Potseluyevskiy kiritilgan.

Asarni tarjima qilish o‘zbek olimi Alibek Rustamovga topshirilgan. 1979-yilda tarjima tugallanib, “Nauka” nashriyotining sharq adabiyotlari tahririyatiga chop etish uchun topshirilgan. Tarjima qo‘lyozmasi 1215 bet bo‘lib, uning boshida Alibek Rustamov tomonidan yozilgan “Tarjimondan” degan tarjima jarayoni haqidagi ma’lumot, A.N.Kononovning kirish maqolasi bo‘lgan. 1980-yilda Y.A.Potseluyevskiyning DLT tarjimasini chop etish haqidagi ichki taqrizi olingan.

1980-yillarning boshida DLTning uyg‘ur [10; 11; 12] va ingliz [5; 6; 7] tillaridagi tarjimalari nashr etilgan. Lug‘atning ingliz tilidagi tarjimasida oldingi nashrlardan farqli o‘laroq, anchagina so‘zlarning yozilishiga tahrir kiritilgan. Shu bois asarning ruscha tarjimasini qo‘lyozmasini ingliz tilidagi tarjima bilan solishtirib chiqish va shu asosda tahrir qilish lozim bo‘lgan. Bu ish I.V.Kormushin va Y.A.Potseluyevskiyga topshirilib, uning tahriri 1990-yilgacha cho‘zilgan. 1990-yillardagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlar DLTning ruscha tarjimasini chop etilishini orqaga surgan.

I.V.Kormushin “Kirish”da “Devon”ning yozilish sabablari, Mahmud Koshg‘ariyning tug‘ilishi va dafn qilingan joyi to‘g‘risidagi farazlar, olimning kelib chiqishi va tug‘ilgan sanasi haqida, hayoti, DLTning yozilish bosqichlari, asl nusxa va ko‘chirilgan nusxa taqdiri, asarda tillarni qayd etish tamoyillari kabi masalalarni ham tahlil etgan.

DLTning ruscha tarjimalari tarixini kuzatadigan bo‘lsak, hozirgacha bu borada anchagina ishlar amalga oshirilganini ko‘rish mumkin. S.Y.Malov 1926-yilda asardagi she’riy parchalarning bir qismini tarjima qilgan [26], keyinchalik ularning tarjimasini yana kengaytirgan [27]. I.V. Stebleva asardagi she’riy parchalar tanqidiy matni bilan birga ularning tarjimasini ham e’lon qilgan [39].

Z.A. Avezova 2005-yilda DLTning rus tilidagi to‘la tarjimasini chop ettirgan [29]. Mazkur tarjimaning erishilgan yutuqlari bilan birga, kamchiliklari borligi ham mutaxassislar tomonidan qayd etilgan.

Shu ma’noda, Alibek Rustamov tomonidan amalga oshirilgan DLT ruscha tarjimasining Moskvada chop etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xulosa

1. Mahmud Koshg‘ariyning arab tilidagi DLT asari uch nafar o‘zbek tarjimonlari tomonidan: Xolid Said Xo‘jayev ozarbayjon tiliga, Solih Mutallibov o‘zbek tiliga, Alibek Rustamov rus tiliga tarjima qilgan.

2. Har uchala tarjima ham mutaxassislar tomonidan yuqori baholangan.

3. Har uchala tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud (Masalan, Xolid Said Xo‘jayev DLTni ozarbayjon tiliga tarjimasida maqolalardagi bosh so‘zlarni, bosh so‘z misollar tarkibida kelgan bo‘lsa ularni rus tiliga ham tarjima qilgan. Bunday holat asarning boshqa tarjimalarida uchramaydi. Lug‘at maqolalari raqamlangan. Solih Mutallibov tarjimasida misollarni izohlash uchun Alisher Navoiy asarlaridan yoki shevalardan olingan so‘zlar bilan qiyoslashga harakat qilingan).

4. Ushbu tarjimalarni, nashrlarni qiyoslab tadqiq qilish, ularning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, DLTdagi turkiy matnlarni esa o‘zbek shevalari, mumtoz asarlar til xususiyatlari bilan qiyoslab o‘rganishga katta ehtiyoj bor.

Iqtiboslar/Чноски/References/Kaynaklar:

1. Atoqli uyg‘ur olimi Mahmud Koshg‘ariy va uning o‘lmas asari “Turkiy tillar devoni” // Mahmut Qashqariy. Turkiy tillar divani (Divanu lugat-it-turk). – Urumchi: Shinjong xalq nashriyoti. 1981. I tom. –B. 46-47.
2. Həbibbəyli İsa. Ön söz. Mahmud Kaşğari, “Divanü lüğat-it-türk” və Xalid Səid Xocayevin orijinaldan tərcüməsi // Mahmud Kaşğari. “Divanü lüğat-it-türk”. 3 cildə. 1 cild. – Bakı: “Elm” 2024. –S. 7. 5-9.
3. Kâşgarlı Mahmud. Divanü lüğat-it-türk. (Çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5 Baskı. Cilt I. S. XXXI.
4. Kilisli Muallim Rifat Bilge. Bildiklerim // Muhtar Tefvikoğlu. Ali Emîrî effendi. –Ankara: Kültür Bakanlığı 1082. 1989. – S. 173-196.
5. Mahmūd Al-Kāşrārī, Compendium of Turkic Dialekts (Dīvān Lugaāt at-Turk). Edited and Traslation with Introdoction and Indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. – Harvard: Harvard University Printing Office, 1984. Part I. – P. XI+416.
6. Mahmūd Al-Kāşrārī, Compendium of Turkic Dialekts (Dīvān Lugaāt at-Turk). Edited and Traslation with Introdoction and Indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. – Harvard: Harvard University Printing Office, 1984. Part II. – P. III+381.
7. Mahmūd Al-Kāşrārī, Compendium of Turkic Dialekts (Dīvān Lugaāt at-Turk). Edited and Traslation with Introdoction and Indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. – Harvard: Harvard University Printing Office, 1985. Part III. – P. 337.
8. Mahmud Kaşğari əməyindən yararlanmaq imkani. “Divanü lüğat-it-türk” // Mahmud Kaşğari. “Divanü lüğat-it-türk” (Xalid Səid Xocayevin tərcüməsində). 3 cildə. 1 cild. – Bakı: “Elm” 2024. –S. 67-72.
9. Məmmədli Nadir. Giriş // Mahmud Kaşğari. “Divanü lüğat-it-türk”. 3 cildə. 1 cild. – Bakı: “Elm” 2024. –S. 15-65.

10. Qashgari Maxmut. Turkiy tillar divani – Divanü lüğat-it-türk. – Urumchi: Shinjong Xalk nashriyoti. 1981. I. – 62+687 (arab alifbosida).
11. Qashgari Maxmut. Turkiy tillar divani – Divanü lüğat-it-türk. – Urumchi: Shinjong Xalk nashriyoti. 1983. II. – 533 (arab alifbosida).
12. Qashgari Maxmut. Turkiy tillar divani – Divanü lüğat-it-türk. – Urumchi: Shinjong Xalk nashriyoti. 1984. III. – 612 (arab alifbosida).
13. Ramiz Asker. Divanü Lüğat-it-Türk Istatistikleri // 2. Uludlararası Türkiyat Araştırmaları Bilgi Şöleni Bildirileri. Kaşgarlı Mahmud ve Dönemi. 28-30 Mayıs 2008. – Ankara, 2009. –S. 33-44.
14. Ramiz Əskər. Mahmud Kaşğari və onun “Divanü lüğat-it-türk” əsəri. Bakı: “MBM”, 2008, 432 b.
15. Son söz əvəzi // Mahmud Kaşğari. “Divanü lüğat-it-türk”. 3 cildə. 1 cild. – Bakı: “Elm” 2024. –S. 73.
16. Али Шомил Ҳусайн ўғли. Қатағон қурбони // *Жаҳон адабиёти*. 2008. 1-сон. –Б. 111-118.
17. Алмаз Улви Биннатова. Тилшунос ва шарқшунос олим Холид Саид Хўжаев // *Сўз санъати* журнали. 2018. 1-сон. –Б. 39-47.
18. *Асқар Қулиев. Икки халқ фарзанди // Гулистон*. 1988. 11-сон. 24-25-бет
19. Ашнин Ф.Д., Алпатов В.М., Насилов Д.М. Репрессированная тюркология. – М.: Восточная литература, 2002.
20. Боровкова Т.А. Грамматический очерк языка “Диван-у лугат ит-турк” Махмуда Кашгари. АКД. – М. –С. 15.
21. Боровкова Т.А. Относительнонового издания словаря Махмуда Кашгарского // Народы Азии и Африки. –М. 1964. № 5. –С. 133-135.
22. Бўнјадов З. Гырмызы террор. Вакі: *Azərbaycan dövlət nəşriyyatı*. 1993.
23. Килисли муаллим Рифат. Билганларим. *Jahon adabiyoti*. 2022. 11-сон. – В. 174-191.
24. Кононов А.Н. Изучение “Дивану лугат ит-турк” Махмуда Кашгарского в Советском Союзе // Советская тюркология. –Баку. 1973. № 1. –С. 3-9.
25. Кононов А.Н. Махмуд кашгарский и его “Дивану лугат ит-турк” // Советская тюркология. –Баку. 1972. № 1. –С. 3-17.
26. Малов С.Е. Образцы древнетурецкой письменности, спредисловием и словарем. – Ташкент, 1926.
27. Малов С.Е. Памятники древнетурецкой письменности. – М.-Л., 1951.
28. 25. Махмуд ал-Кашгарӣ. Диван лугат-турк. В 3-х томах. Т. I / Перевод А.Рустамова, предисловие И.В.Кормушина. – М.: Восточная литература. 2010.
29. Махмуд ал-Кашгари. Диван Лугат-Турк / Перевод и пердслобие З.-А.М.Авезовой, индексы Р.Эрмерса. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. –С. 1288 +2 вкл.
30. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I том. / Таржимон ва нашрга тайёрловчи Солиҳ Муталлибов. –Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. 1960. –Б. 499.
31. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). II том. / Таржимон ва нашрга тайёрловчи Солиҳ Муталлибов. –Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. 1961. –Б. 427.
32. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). III том. / Таржимон ва нашрга тайёрловчи Солиҳ Муталлибов. –Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. 1963. –Б. 461.

33. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк (Туркий сўзлар девони). / Таржимон Солих Муталлибов. Нашрга тайёрловчи Қосимжон Содиқов. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017. –Б. 488.
34. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк). I жилд. / Таржимон Солихқори Муталлибов. Нашрга тайёрловчилар Алибек Рустамов, Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: Mumtoz so‘z. 2016. –Б. 388.
35. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк). II жилд. / Таржимон Солихқори Муталлибов. Нашрга тайёрловчилар Ҳамидулла Болтабоев, Бахтиёр Исабеков. –Тошкент: Mumtoz so‘z. 2016. –Б. 292.
36. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк). III жилд. / Таржимон Солихқори Муталлибов. Нашрга тайёрловчилар Ҳамидулла Болтабоев, Бахтиёр Исабеков. –Тошкент: Mumtoz so‘z. 2016. –Б. 308.
37. Олмос УЛВИЙ. Тилшунос ва шарқшунос олим Холид Саидхўжаев. // Tamaddun nuri. 2018-yil, 2-son. –В. 35-39.
38. Рустамов А. О переводе “Дивану лугат-ит-тюрк” Махмуда Кашгарн на русский язык. // Советская тюркология, –Баку. 1972, № 1, –С. 129-139.
39. Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – Москва: Наука. 1971. – С. 299.
40. Тагирзаде А. Халид Саид Ходжаев // Советская тюркология, –Баку. 1988, № 3, с. 96-97.
41. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. –Самарқанд. 1927.
42. Халид Саид Ходжаев. Дивани лугати тюрк Махмуда Кашгарского // Советская тюркология. –Баку. 1988. № 3. –С. 97-103.
43. Халид Саид Ходжаев. Дивани лугати тюрк Махмуда Кашгарского // Труды Азербайджанского филиала АН СССР, № 31. Серия лингвистическая. –Баку, 1936, –С. 105-112.
44. Худойбердиев Ж. “Девону луғотит турк”: топилиши, таржималари ва ўрганилиши // Туркология масалалари 1. –Тошкент. 2006. –Б. 60-65.
45. Худойбердиев Ж. “Девону луғотит турк”нинг таржималари // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент. 2010. № 3/1. –Б. 192-198.
46. Худойбердиев Ж. Жаҳон туркологияси шоҳ асарининг таржималари // Илмӣ хабарнома. –Андижон. 2010. № 4. –Б. 84-90.
47. Худойбердиев Ж. Ўзбек туркологиясининг халқаро миқёсидаги эътирофи // Академик Алибек Рустамов. Тошкент. 2011. 24-28
48. Худойбердиев Ж. Ўзбек туркологиясининг халқаро миқёсидаги эътирофи // Одамийлик ва олимлик фазилатлари мужассам инсон. –Тошкент. 2014. –Б. 185-188.
49. Қадимий ҳикматлар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1987. –Б. 59-88.
50. Қаюмов А. Қадимият қомуси // Совет Ўзбекистони. 1966 йил 27 июль;
51. Кулиев А. Икки халқ фарзанди // Гулистон, 1988, № 11, –Б. 25.
52. Қўчқорова М. Холид Саид ҳаёти ва фаолияти: “Ўтган кунлар” озар тилида // Шарқ юлдузи. 2014. № 1. –Б. 127-130.
53. Ҳайдарали Узоқов. Гуноҳсиз отилган олим // Меҳнат. 1994 йил 21 январ.

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,

Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

1. The article is presented on 8-10 pages;
2. Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone and e-mail address of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in Uzbek, Turkish and English.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
3. The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
4. Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
5. Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
6. Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

**“TURKOLOGIK
TADQIQOTLAR” XALQARO
JURNALINING AXBOROT
XATI**

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy, ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o‘tkazilgan sammitida ko‘zda tutilgan o‘zaro aloqalarni jadallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta’sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e’lon qilishga mo’ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e’tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O‘zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:


@turkologiyal

Elektron pochta:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,15 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otaismi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, respublika, telefoni va e-mail adresi to‘liq keltirilishi kerak.
 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
 5. Har bir maqola boshida o‘zbek, turk va ingliz tillarida annotatsiya bo‘lishi lozim.
 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snokalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЕТЕНЬ
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА
"ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ"**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и внизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, телефон и адрес электронной почты автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи должна быть аннотация на узбекском, турецком и английском языках.
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нереконмендованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğrenim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmî yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütün olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon ve e-posta adresi eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında Özbekçe, Türkçe ve İngilizce özet bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
- Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
- Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
- Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
- Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Prof. J.Eltazarov

Musahhih va texnik muharrir:

R. Shokirov



ISSN 2992-9229

2024-yil 29-oktabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2024-yil 31-oktabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı –9.

Adadı 15 nusxa. Buyurtma № 174

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISSN 2992-9229